

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ
VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITET

REFERAT

Mavzu: Qadimgi Toshkent

Tekshirdi: _____

Bajardi: Siddiqov T

TOSHKENT-2014

Qadimgi Toshkent



Toshkent- O'zbekiston Respublikasi poytaxti, Toshkent viloyati markazi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan biri . Shaharda 11 tuman va 1 ta shaharcha (Ulug'bek) bor.

Yozma manbalarda keltirilishicha , Toshkentning qadimgi nomi Choch bo'lgan. Toshkent arablar tasarrufiga o'tgach , arab alifbosida “ch” harfining yo'qligi bois arabiy asarlarda Shosh deb yuritilgan. Beruniy o'zining “Hindiston “ asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to'g'risida so'z yuritib, “tosh” so'zi asli turkcha bo'lib, Shosh ko'rinishini olgan. “Toshkand- toshli qishloq demakdir” – deb izohlaydi.

13-14 asrning 1- yarmida Toshkent viloyati Chig'atoy ulusi tarkibida, 14 asrning 2- yarmi va 15 asrning 80 yillarigacha Toshkent Amir Temur va Temuriylar tarkibida bo'ldi. 1404 yilda Ulug'bek ixtiyoriga mulk tarzida berildi. Bu davrda shahar voha bilan dasht chegarasidagi kuchli qal'aga aylandi, uning xududi kengaydi, ishlab chiqarish, savdo , madaniyat rivojlandi. Registon, Shayxontohur ansamblidagi maqbaralar , Jome masjidi va boshqalar qurildi.

16 asrda Toshkent yanada obodonlashdi. Shahar yangi devor bilan o'raldi. Me'morlik obidalari qad ko'tardi, ularning ayrimlari : Shayx Xovandi Tohur

maqbarasi ,Ko'kaldosh madrasasi , Baroqxon madrasasi bizning davrimizgacha yetib kelgan

Hozir Toshkent O'zbekiston Respublikasining siyosiy markazi hamdir. Bu yerda Respublikamiz Prezidentining Qarorgohi , O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek , ijtimoiy harakat va partiyalarning va boshqa jamoat tashkilotlarining markazlari , chet el elchixonalari , BMT ga qarashli tashkilotlar vakolatxonalari joylashgan.

1991 yildan boshlab Toshkentdagi Markaziy maydon Mustaqillik maydoni deb atala boshladi. Shahar markazidagi eng katta xiyobon Amir Temur nomi bilan atalib, Sohibqironga haykal o'rnatildi va temuriylar davri tarixi davlat muzeyi qurildi. Shaharning olimlar yashaydigan dahasidagi maydonlardan biriga Mirzo Ulug'bekka haykal qurildi.

Toshkent O'zbekistonning madaniy markazidir . Bu yerda juda ko'plab universitetlar, institutlar, maktab va bog'chalar , teatrlar, istirohat bog'lari, sirk va boshqalar bor.

Toshkent O'rta Osiyodagi eng yirik transport chorrahasi, aeroporti xalqaro ahamiyatga ega. Shaharda temir yo'l vokzali, 2 aeroport, avtovokzal , avtostansiyalar ishlab turibdi.

Toshkendagi ziyoratgoh joylardan Shayx Zayniddin , Cho'ponota, Kaffol Shoshiy , Xo'ja Alambardor maqbaralari mavjud.

Toshkenda ko'plab kasalxonalar, sport inshootlari mavjud. Toshkentning asosiy televizion minorasi Yunusobod tumani xududida joylashgan.

Toshkent metropoliteni hozirgi kunda 3 ta yo'nalishda marshrutlar olib bormoqda. Toshkenda juda ko'p gazeta va jurnallar chor etiladi.

Bizning majmuamiz Toshkent shahrining Sergeli tumanida joylashgan. Sergeli tumani 1967 yilda tashkil etilgan. Sergeli tumanida 1101 korxona bo'lib, shulardan 167 tasi yirik , 252 tasi kichikdir. Tuman xududida Choshtepa va No'g'ayqurbon arxeologik yodgorliklari bor.

2006 yil avgust oyida Sergeli tumanida yangi ko'prik ishga tushirildi.

Tumanda 27 ta umumiy ta'lim maktablari, 5ta maktabdan tashqari ta'lim markazlari , 6 kasb-hunar kolleji, 2 ta bolalar sport maktabi bor.

Toshkent metropoliteni.

Toshkent metropoliteni- Toshkent shahar yo'lovchilar uyushmasi tarkibiga kiradi. Uning qurilishi 1973 yilda boshlangan. Birinchi liniyasining 9 stansiyadan iborat birinchi navbati 1977 y. 6 noyabrda, ikkinchi navbati 1980yil 18 avgustda foydalanishga topshirildi. Bekatlar soni 12 ta: Sobir Rahimov, Chilonzor, Mirzo Ulug'bek, Hamza, Milliy bog', Xalqlar do'stligi, Paxtakor, Mustaqillik maydoni, Amir Temur, Hamid Olimjon, Pushkin, Buyuk Ipak yo'li.217;li.

Ikkinchi liniyasining birinchi navbati 1984 y. noyabrda, ikkinchi navbati 1987 y. noyabrda ishga tushgan. Shu liniyaning uchinchi navbati 1989 y noyabrda, to'rtinchi navbati 1991 y 30 aprelda ishga tushdi. Stansiyalar soni 11ta: Alisher Navoiy, O'zbekiston, Kosmonavtlar, Oybek, Toshkent, Mashinasozlar, Chkalov, G'afur G'ulom , Chorsu, Tinchlik va Beruniy bekatlari.

Toshkent metrosining shahar markazini Yunusobod turar joy massivi bilan bog'laydigan uchinchi liniyasining birinchi navbati 2001 y 26 oktyabrda ishga tushdi. Bekatlar soni 6 ta: Ming o'rik, Yunus Rajabiy, Abdulla Qodiriy, Minor, Bodomzor, Habib Abdullayev.

Toshkent metropoliteni 9 ballik zilzilaga bardosh bera oladi. Metro qurilishi va navbatdagi yo'l hamda bekatlarni loyihalash ishlari davom etmoqda.

O'rta asrlardagi barcha mashhur shaharlar kabi Toshkent atrofi baland devorlar bilan o'ralgan. Olimlarning fikriga qaraganda, qalin paxsa devorning balandligi 8 metr ,aylanasi uzunligi 10 kilometr bo'lgan.

“Shahar bedarvoza emas” degan xalq maqoli o'sha qadim zamonlardan qolgan bo'lsa kerak. Baland qal'adek devorlarning har tarafidan shaharga kirib – chiqiladigan o'n ikkita darvoza qurilgan. Ular qaysi ulus, qabila va urug' qo'shinlari tomonidan qo'riqlangan bo'lsa, o'shalarning nomlari bilan atalgan.

Muhammad Solihxo'janing “Toshkentning yangi tarixi” asarida shahar darvozalarining nomlari shunday izohlangan:

1. Qiyot darvozasi. Qiyot qabilasi nomidan olingan. Qadimda Parkent darvozasi, keyinchalik Qo'qon darvozasi deb atalgan.

2. Turklar darvozasi. Turk qabilasi nomidan olingan.

3. O'zbek darvozasi. O'zbek qabilasi nomidan olingan. Labzak darvozasi deb ham atalgan.

4. Taxtapul darvozasi.

5. Qorasaroy darvozasi. Qorasaroy qabilasi nomidan olingan.

6. Chig'atoy darvozasi. Chingizxon avlodidan bo'lmish Chig'atoy ulusi nomidan olingan.

7. Su'boniyon (Sag'bon) darvozasi. Akademik A. Muhammadjonovning fikricha, "Sag'bon" nomi "Suqbon", ya'ni "bozor qorovuli" degan ma'noni bildiradi.

8. Ko'kcha darvozasi. Bu ham qabila nomidandir.

9. Kamondaron (Kamolon) darvozasi. Kamondo-ronlar buzuvq qabilasining bir toifasiga mansub.

10. Qang'li darvozasi. Bir qabilaning nomidandir.

11. Beshyog'och darvozasi. Bu ham qabila nomidan.

12. Qatag'on darvozasi. Ilgari bu darvozaning nomi Qo'ymaskenagas bo'lgan ekan.

"Daha" so'zi qadimda shaharning o'n mahallasini o'z ichiga olgan ma'muriy xududni anglatgan. Keyinchalik shahar rivojlanib, "daha"lardagi mahallalar soni o'ntadan oshib ketgan bo'lsa ham "daha" atamasi ma'muriy birlik, tuman ma'nosini anglatadi.

BESHYOG'OCH – Toshkentning "daha"laridan biri. Nomi besh og'och – besh daraxt so'zidan olingan. Qadimda turkiy xalqlarda "besh" muqaddas son sanalgan. . . Shuning uchun Beshtarak, Beshkent, Beshqayrag'och, Beshkapa nomli qishloq va mahalla nomlari ko'p uchraydi.

Beshyog'och dahasi shaharning janubiy qismida joylashgan. Yozma asarlarda Zangiota dahasi deb ham atalgan.

Muhammad Solihxo'ja domla Rahim Qoraxo'ja o'g'lining “Tarixi jadidayi Toshkand” – “Toshkentning yangi tarixi” asarida “Beshyog'och” dahasi shunday nom bilan atalgan.

Buning sababi – Zangiota o'sha dahada dafn etilgan. Shayx Oyxo'ja ibn Toshxo'ja – Zangiota nomi bilan mashhur bo'lgan.

SEBZOR – Daha nomi forsiy “seb”- olma so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “Sebzor”, “Olmazor” degan ma'noni bildiradi. Shaharning eng kichik dahasi. Shimoliy hududda joylashgan.

Hazrat Imom Qaffoli Shoshiy maqbarasi shu yerda. Xalq bu qadamjoning nomini qisqartirib Xastimom deb talaffuz qiladi. Abu Bakr Qaffoli Shoshiy 903-976-yillarda yashagan.

U kishi dunyoda mashhur shayx bo'lgan. Kaykovus nomi bilan atalgan katta bog' bo'lib, u yerda shoiru allomalar go'zal mushoiralar o'tkazishgan.

Mashhur Baroqxon madrasasi ham shu dahada.

SHAYXONTOHUR – bu daha shaharning sharqida edi. Nomi shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li shayx Xovandi Tohur sharafiga qo'yilgan. U kishi 1359-yilda vafot etgan.

Yunusxo'ja hukmronligi davrida (XVII asrning 80-yillari) daha yangi mudofaa o'rda devorlari bilan o'ralgan. O'rda qurilgan.

Bosqinchilar hujumlarinatijasida o'rda va devorlar vayron etilavergan. Xalq mehnat qilib,qaytadan quravergan.

Shayx Xovandi Tohur maqbarasi katta ziyoratgoh joy bo'lgan.



KO'KCHA – Bu dahaning nomi

kohak, qohcha so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida qal'acha degan ma'noni anglatadi, shaharning g'arbiy qismida joylashgan, Imom Shayx Zayniddin (taxminan XIII asrda yashagan) mozori shu dahada ekanligi uchun “Shayx Zayniddin dahasi” deb ham ataladi. Aholisi ko'nchilik, kosibchilik va to'qimachilik bilan mashg'ul bo'lgan.

Oqsaroy. Oqsaroy- Toshkendagi zamonaviy me'moriy inshoot. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorgohi. Binoning me'mori To'xtayev. Qabulxonada mehmonlar qabul qilinib, o'zaro muzokaralar olib boriladi. Majlislar zali, dam olish va xizmatchilar xonalari va qo'shimcha xonalar mavjud. Xonalar turlicha loyihalashtirilganligiga qaramay, ixcham va bir-biri bilan hamohangdir. Oddiy geometrik shakllardan tashkil topgan bino tarzi juda xashamatli ko'rinadi. Oppoq ko'rkam va mahobatli ko'rinishga ega. Sathi katta o'lchamdagi tosh bo'laklari bilan qoplangan. Atrofi manzarali daraxt, gulzor va favvoralar bilan bezatilib, ko'kat chimlar yotqizilgan, shamchiroqlar o'rnatilgan..

